

Date: 21<sup>st</sup>February-2025

**“BOBURNOMA” – MEMUAR ASAR**

**Fayziyeva Maloxat Jo‘raqulovna**

Toshkent shahar Yunusobod tumani  
9-DIUM o‘zbek tili fani o‘qituvchisi



**Annotatsiya:** O‘zbek tili tarixini o‘rganishda bu asar beba ho xazina hisoblanadi. “Boburnoma “ XV – XVI asrning birinchi choragida uch mintaqada kechgan muhim voqealarini badiiy aks ettirgan prozaning qimmatli namunasidir. Ushbu ilmiy maqolada aynan ushbu beba ho asar, uning qiymati xususida fikr-mulohaza yuritilgan.

**Abstract:** This work is an invaluable treasure in the study of the history of the Uzbek language. "Boburnoma" is a valuable example of prose that artistically reflects important events that took place in three regions in the first quarter of the 15th-16th centuries. In this scientific article, there is an opinion about this priceless work and its value.

**Аннотация:** Данная работа является бесценным сокровищем в изучении истории узбекского языка. «Бобурнома» представляет собой ценный образец прозы, художественно отражающей важные события, происходившие в трех регионах в первой четверти XV-XVI веков. В данной научной статье изложено мнение об этом бесценном произведении и его ценности.

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma“, memuar, tarixiy, qimmatbaho asar, voqealar, e’tibor, Vatan...

**Keywords:** "Boburnoma", memoir, historical, precious work, events, attention, Motherland...

**Ключевые слова:** «Бобурнома», мемуары, исторический, драгоценный труд, события, внимание, Родина...

Inson uchun ham ishonchli, ham sadoqatli suhbatdosh bo`la oladigan, voqealar bayoni aniq, ixcham, lo`nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mosligi bilan e’tiborga loyiq bo`la olgan, asrlar silsilasidan o`tib, hozirga qadar qimmatbaho yodnomasi sifatida baholanib kelingan Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma“ asari haqida hech ikkilanmay insonga har qanday holat va vaziyatda dardkash, suhbatdosh hamda yaqin do`scht bo`la oladigan asar sifatida qarab, qadimgi arab shoirlaridan biri bergen e’tirofni bemalol qo’llay olamiz : “Gaplari malol kelmaydigan, borimizda ham, yo`g`imizda ham ishonchli, sadoqatli suhbatdoshlarimiz bor. Ular o`tgan zamon voqealaridan bilganlarini bizga yetkazadilar. Maslahat, odob va mustahkam iroda ifoda etadilar. Ularni tirik desam , yolg`onchi bo`lmayman, jonsiz desam, aqlsiz hisoblanaman. Jahonda ulardan yaxshiroq do`scht yo`q. Kishi yolg`iz qolsa, ular aslo zeriktirmaydi. Ularda orom bor-u , ozor yo`q. Bundayin dilkash, dardkash do`scht – kitoblardir “. O‘zbek mumtoz adabiyotining ulkan siymolaridan biri, turkiy til va adabiyotining rivojiga beba ho hissa qo’shgan iste’dodli olim, davlat arbobi, oqil va zakiy sarkarda , qalami tengsiz shoir Z.M.Bobur o`ta murakkab ijtimoiy- tarixiy davrda yashab ijod qilgan. Bobur Mirzo o`zi

Date: 21<sup>st</sup>February-2025



shoh bo`lganligi uchun hech kimga tobe emas edi, shu bois ijod jarayonida o`zini butunlay mustaqil his qilar va erkin qalam tebratardi. Z.M.Boburning “Boburnoma” asari qomusiy xarakterdagi asarlardan bo`lib, unda ilm- fan, urf – odat, ijtimoiy – siyosiy , tabiiy – etnografik ma’lumotlar mohirlik bilan ifodalangan. Ingliz sharqshunosi Denison Ross Boburning Turkiston, Afg`onistonda yozilgan she’rlarini Parij milliy kutubxonasidan, Hindistonda yozilgan she’rlarini esa Rampur kutubxonasidan topib, 1910 – yilda bosma va fotonusxa holida nashr ettirgan. Z.M.Boburni nafaqat zamondoshlari, balki dunyo ahli hozirga qadar ajib bir iliqlik bilan yodga oladi. Ulardan Monsyuart Elfinson “Boburnoma “ asariga quyidagicha baho beradi: “Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o`z zamondoshlarining qiyofalari, urf- odatlari va intilishlarini , qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir “. Hasanxo`ja Nisoriy Z.M.Bobur haqida o`z asarlaridan birida : “ Chig`atoy sultonlarining eng sarasi va zo`r shijoatlisi edi”, deb eslasa, ingliz olimi Denison Ross “ Bobur turkiy she’riyatda Alisher Navoiydan keyingi o`rinda edi. U sof va nafosatli turkiyda devon tartib etdi”, deya yozadi... “ Boburnoma “ asari o`zbek adabiy tilining qimmatli va juda muhim yodgorliklaridan biridir. Bu asar orqali biz XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi o`zbek adabiy tili hamda uning o`sha davrdagi asosiy shevalaridan bo`lgan Andijon shevasi haqida keng, mukammal tasavvurga ega bo`lamiz. Asarda Bobur o`zbek tilidagi so`zlardan juda o`rinli va unumli foydalandi. Asarda Bobur ona tilining lug`at boyligiga hamda xalq maqollari va ta`birlariga kata e’tibor qaratadi. Masalan, “Dushman ne demas, tushga ne kirmas”, “ Chumchuq bezgak bo`lg`on emish”, “ Yengilgan safga bir qo`rqish kifoyadir”, “ Uzri gunohidan yomonroq”, “ Do`stlar bilan birga bo`lib o`lmoq to`ydir”, “ Bu yerdan surilib, u yerdan judo bo`lib qolgan “ kabi ta’bir va maqppardan foydalangan.

“Boburnoma” da ifodaning ixchamligi, soddaligi va ravonligi asarning eng muhim xususiyatidir. Bobur asarida oz so`z bilan keng fikrni bayon etishga, so`zlarni tanlab ishlatalishga, ortiqcha so`zlarni ifodalamaslikka harakat qiladi; ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli so`zlardan keng va o`rinli foydalanadi. Z.M.Boburning , ayniqsa, ma’rifatparvarligi diqqatga sazovor. U doim olim va fozillar, san’atkor kishilar bilan birga bo`lishga , ular bilan maslahat qilishga, o`z bilimini tinmay oshirishga intildi. Uning to`rt o`g`li ( Humoyun, Komron, Askariy, Hindol Mirzolar) va uch qizi ( Gulchehra, Gulrang, Gulbadan begin) bo`lib, ularga ham o`zining shu xususiyatlarini singdirishga harakat qilgan. “Boburnoma” asarini ko`zdan kechirsangiz Bobur davlatni boshqarishda ham xuddi shunday tarzda maslahat, kengash bilan ish tutish lozimligini uqtirdi. Farzandlaridan Humoyun, Komron va Gulbadanbegin shoir va adib bo`lib yetishdilar. Bobur uchun Vatandan uzoqda, gurbatda yashash nihoyatda og`ir edi. Buning ustiga uzoq vaqt sarson – sargardonlikni boshidan kechirish, dushmanlariga qarshi uzlusiz kurash olib borish uning sog`ligiga ta’sir qilgan edi. “Boburnoma” da o`zining og`ir ahvoli, sog`ligi yomonlashib borayotganligi haqida quyidagi ruboyni yozadi : Jismimda isitma kunda mahkam bo`ladur, Ko`zdin uchadur uyqu, chu oqshom bo`ladur Har ikkalasi g`amim bila sabrimdek, Borgan sayin bu ortadur, ul kam bo`ladur... Bobur she’rlari hijron azobida kuylangan qalb ko`zlaridan oqqan yosh bilan yozilgan. Ularda ona -yurt sog`inchida ado

Date: 21<sup>st</sup>February-2025



bo`lgan farzandning , yor firoqida azob chekkan oshiqning ,o`z xatolarini anglab yetgan komil insonning , bobolari toj- davlatini saqlab qololmagan hoqonning alamlarini nadomatlar bilan ifodalagan: Ey yel, borub ahbobg`a nomimni degil, Har kim meni bilsa, bu kalomimni degil, Mendin demagil gar unutilg`an bo`lsam, Har kimki meni so`rsa. Salomimni degil... “ Boburnoma” da Bobur yozgan she’rlari va hayotiy misollarida , asosan, hasbi hol mazmunidagi motivlarga duch kelsak- da , ularda yurt va Vatanga muhabbat , ezgu insoniy fazilatlar tarannumi, oliyjanob tuyg`ular tasviri yetakchilik qiladi.

Xullas, asar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning turli – tuman ma’lumotlarga juda boyligini yaqqol ko`ramiz. Chunki asardan fanning deyarli barcha sohalaridagi mutaxassislar bahramand bo`la oladi. “ Boburnoma ” asari hozirgi O`zbekiston, Afg`oniston , Hindiston va Pokiston haqidagi eng mukammal hamda ishonchli manba sifatida asrlar mobaynida jahon ahlini o`ziga jalb qilib kelmoqdar Shuning uchun ham “Boburnoma” jahon adabiyotining nodir durdona asarlaridan hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adabiyot . 11- sinf : darslik – majmua / [B.To`xliyev](#) (va boshq.).- Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.
2. “Boburnoma” / Nashrga tayyorlovchi : P. Shamsiyev; Muharrir : A.O`ktam, - Toshkent . “Yulduzcha” nashriyoti , 1990 .- 368 b.
- 3.“Sharq klassiklari merosidan” Bobur she’riyatidan. O`zbekiston Fanlar Akademiyasi qo`lyozmalar institute : S. Hasanov; muharrir – Aziz Qayumov. Toshkent – 1992 - 144 b.
4. Adabiyotdan universal qo`llanma / D. Yusupova.- Toshkent . Akademnashr; 2014. – 592 b.
5. Sh.Sariyev “Adabiyot fanidan yaxlit o`quv – didaktik majmua” “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, - Toshkent . 2014.- 352 b.